

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
«YOSH OLIMLAR TIBBIYOT JURNALI»

TASHKENT MEDICAL ACADEMY
«MEDICAL JOURNAL OF YOUNG SCIENTISTS»

ТАШКЕНТСКАЯ МЕДИЦИНСКАЯ АКАДЕМИЯ
«МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ МОЛОДЫХ УЧЕНЫХ»

IXTISOSLASHUVI: «TIBBIYOT SOHASI»

ISSN: 2181-3485

Mazkur hujjat Vazirlar Mahkamasining 2017 yil i5 sentabrdagi 728-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to'g'risidagi nizomga muvofiq shakllantirilgan elektron hujjatning nusxasi hisoblanadi.

№ 6 (05), 2023

ТОМ 1

«Yosh olimlar tibbiyot jurnali» jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023 yil 5 maydagi 337/6-son karori bilan tibbiyot fanlari buyicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan.

Решением Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 мая 2023 г. № 337/6 «Медицинский журнал молодых ученых» внесен в перечень национальных научных изданий, рекомендованных для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Шадманов Алишер Каюмович

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Шайхова Гули Исламовна

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ

Алимухамедов Дилшод Шавкатович

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

д.м.н., доцент Азизова Ф.Л.
профессор Азизова Ф.Х.
профессор Аллаева М.Ж.
профессор Камилов Х.П.
профессор Каримжонов И.А.
профессор Каримова М.Х.
профессор Набиева Д.А.
профессор Нажмутдинова Д.К.

профессор Нуриллаева Н.М.
профессор Тешаев Ш.Ж.
профессор Хайдаров Н.К.
профессор Хакимов М.Ш.
профессор Хасанов У.С.
д.м.н. Худойкулова Г.К.
профессор Эрматов Н.Ж.
профессор Маматкулов Б.М.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА

Агишев И.А.	д.м.н. (Казахстан)	Парпиева Д.А.	д.м.н. (Ташкент)
Аглиулин Д.Р.	к.м.н. (Россия)	Рахимова Г.С.	д.м.н. (Ташкент)
Алейник В.А.	профессор (Андижан)	Рустамова М.Т.	д.м.н. (Ташкент)
Билолов Э.Н.	профессор (Ташкент)	Саломова Ф.И.	профессор (Ташкент)
Ганиев А.А.	д.м.н. (Ташкент)	Сидиков А.А.	д.м.н. (Фергана)
Инаков Ш.А.	PhD (Германия)	Собиров У.Ю.	профессор (Ташкент)
Искандарова Г.Т.	профессор (Ташкент)	Тажиева З.Б.	PhD (Ургенч)
Исраилов Р.	профессор (Ташкент)	Ташкенбаева У.А.	д.м.н. (Ташкент)
Кайнарбаева М.С.	к.м.н. (Казахстан)	Хасанова Д.А.	д.м.н. (Бухара)
Матназарова Г.С.	профессор (Ташкент)	Хасанова М.А.	д.м.н. (Ташкент)
Мирзоева М.Р.	д.м.н. (Бухара)	Хван О.И.	д.м.н. (Ташкент)
Мирмансур	PhD (Индия)	Хожиметов А.А.	профессор (Ташкент)
Муртазаев С.С.	д.м.н. (Ташкент)	Холматова Б.Т.	д.м.н. (Ташкент)
Орипов Ф.С.	д.м.н. (Самарканд)	Чон Хи Ким	PhD (Южная Корея)
Отамурадов Ф.А.	д.м.н. (Термез)	Юлдашев Б.С.	д.м.н. (Ургенч)

Адрес редакции:

Ташкентская медицинская академия 100109, г.
Ташкент, Узбекистан, Алмазарский район, ул. Фараби 2,
тел.: +99878-150-7825, факс: +998 78 1507828,
электронная почта: mjys.tma@gmail.com

НАУЧНЫЕ ОБЗОРЫ

- Асадова Г.А.** / Диагностические и лечебные мероприятия перинатальной службы в Узбекистане 101
- Джалилова Г.А., Асадов Р.Х., Саттарова З.Р.** / Организационные аспекты гемодиализной помощи населению в Узбекистане 109
- Джалилова Г.А., Мирдадаева Д.Д., Одилова М.А.** / Охрана материнства и детства в Республике Узбекистан..... 114
- Mustafaqulova K.I., Jumanazarov S.B.** / Yurak ishemik kasalligi stabil zo‘riqish stenokardiyasida refleksoterapiyaning qo‘llanilishi..... 118
- Исломжонова М.М., Саидмуродов К.С., Исмаилов Д.Ш., Садриддинова М.С., Рахматова Ф.У.** / Функциональное состояние сердечно-сосудистой системы юных спортсменов и подростков, не занимающихся активными видами спорта, с разным уровнем физической подготовленности..... 123
- Юсупова Ш.А., Камилова Б.М., Пинязов А.Х.** / Эффективность применения лазера Q-SWITCH при удалении Невуса Ота..... 130
- Курбанбаева С., Мустанов А.Ю., Матназарова Г.С., Брянцева Е.В.** / Динамика заболеваемости менингококковой инфекцией 135
- Rishabh, Mirkhamidova S.M.** / The impact of different types of addiction on human health 141
- Deepanshu Tanwar, Mirkhamidova S.M.** / Problems and challenges faced by hostel students 146
- Himanshu Tanwar, Mirkhamidova S.M.** / The impact of smoking on students’ life..... 150
- Chirag, Mirkhamidova S.M.** / The impact of social media on student health 155
- Himanshu Dahiya, Mirkhamidova S.M.** / The impact of alcohol on student health 160

YURAK ISHEMIK KASALLIGI STABIL ZO'RIQISH STENOKARDIYASIDA REFLEKSOTERAPIYANING QO'LLANILISHI

Mustafaqulova Komila Ikrom qizi - Xalq tabobati yo'nalishi 3-bosqich talabasi
Jumanazarov Sultanboy Baxodirovich - 2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va
gemodializ kafedrası assistenti
Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: Yurak ishemik kasalliklari butun dunyoda mehnatga layoqatli aholining nogironlashishi va o'limi bilan yakunlanishiga olib keluvchi asosiy sabablardan biridir. Yurak ishemik kasalliklari orasida Stenokardiya eng ko'p tarqalgan turi hisoblanadi. Ushbu maqolada stenokardiyaning davolashda xalq tabobati refleksoterapiyaning qo'llanilishini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: yurak ishemik kasalliklari, stenokardiya, refleksoterapiya

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РЕФЛЕКСОТЕРАПИИ ПРИ СТАБИЛЬНОЙ НАПРЯЖЕННОЙ СТЕНОКАРДИИ С ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНЬЮ СЕРДЦА

Аннотация: ИБС является одной из основных причин инвалидности и смертности трудоспособного населения во всем мире. Стенокардия является наиболее распространенным типом ишемической болезни сердца. В статье рассматривается применение рефлексотерапии народной медицины в лечении стенокардии.

Ключевые слова: ишемическая болезнь сердца, стенокардия, рефлексотерапия

USE OF REFLEXOTHERAPY IN STABLE TENSION STENOCARDIA WITH ISCHEMIC HEART DISEASE

Abstract: Ischemic heart diseases are one of the main causes of disability and death of the working population all over the world. Angina is the most common type of ischemic heart disease. Application of reflexotherapy of folk medicine in the of angina pectoris.

Key words: ischemic heart diseases, angina pectoris, reflexotherapy,

Xalq tabobati usullari bilan davolash asrlar davomida o'zining o'rni va qiymatini saqlab kelgan foydali va samarali usullardan biri hisoblanadi. O'tkir va surunakali kasalliklarni davolashda xalq tabobati muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz miqyosida aholiga tibbiy yordam sifatini oshirish, jumladan erta tashhislash usullarini takomillashtirish va YuQTKni davolash samaradorligini oshirish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada mamlakatimizda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, shuningdek, tibbiy standartlashtirish tizimini shakllantirish, tashxis qo'yish va davolashning yuqori texno-

logiyali usullarini joriy qilish, dispanserizatsiyaning samarali modellarini yaratish orqali sog'lom turmush tarzini qo'llab – quvvatlash hamda kasalliklarni profilaktika qilish kabi muhim vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 dekabrda PF-5590-son «Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risidagi» farmonida belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish aholi orasida YuQTK xavf omillarini erta aniqlash va bartaraf etish, samarali tibbiy xizmat ko'rsatishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni takomillashtirish orqali yurak-qon tomir kasalliklari asoratlarini, nogironlik va o'lim ko'rsat-

kichlarini kamaytirish, bemor hayot sifati va prognozini yaxshilash imkonini beradi.

Sharq tibbiyoti konsepsiyalariga muvofiq, yurak mediani yurak va qon aylanish faoliyati holatiga bevosita ta'sir qiluvchi, faoliyat tizimidir. Bundan tashqari, qadimgi konsepsiyalar ta'kidlaydiki, ya'ni ong, aqliy faollik, sezgi va his-hayajon yurak nazorati ostida bo'ladi. Yurak faoliyatining yomonlashuvi, asabiylik, holsizlik; faollikning pasayishi, ikkilanuvchanlik va boshqalarga olib keladi. Bu borada yurak meridiani nuqtalariga turli emosional – stress buzilishlar, nevrozlar, depressiya va ba'zi boshqa funksional kasalliklarni davolash uchun alohida e'tibor beriladi. Bu kabi holatlarda akupunktura “yurakni tinchlantirish va insonning ruhiy holatini yaxshilash”ga olib keladi.

Yurak “meridianining shikastlanishi” diagnostikasi klassik shaklda puls diagnostikasi bilan bir qatorda quyidagi belgilarga asoslanadi: ko'krakdagi og'irlik, ba'zan haroratning ko'tarilishi va og'izning qurishi me'yordan oshish belgisiga to'g'ri keladi. Yurak meridianida “quvatning oshib ketishi” belgilari bo'lgan shaxslar ozg'in, jismoniy mustahkam, terisi rangi yaxshi, ammo oson ta'sirlanuvchan va tez-tez yuqori nafas yo'li katariga moyil bo'ladi. “Yetishmovchilik” belgilari bo'lgan shaxslar ikkilanuvchan, qo'rquv va hayajonga beriluvchan, salomatligi past, ozg'in, asab buzilishlariga moyil, munosabati yomon, teri va ko'rinvchi shilliq qavat oqish-ko'kargan bo'ladi. Shunisi xarakterliki, ya'ni sharq shifokorlari turli kasalliklar diagnostikasida, shu bilan birga yurak holatini aniqlash uchun ham shilliq parda va teri holatiga katta e'tibor beradilar.

Akupunktura amaliyotida yodda tutish lozimki, ya'ni yurak mediani nuqtalariga ta'sir o'tkazish, yurak-tomir tizimi faoliyatining buzilishi, nevrozlar, hushdan ketish, bosh aylanishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, ruhiy – emosional buzilishlarning ma'lum bir darajasi bartaraf etiladi.

Stenokardiya – jismoniy yoki ruhiy zo'riqishda miokardning kislorodga bo'lgan ehtiyoji oshib ketishi oqibatida yuz beruvchi mutloq yoki nisbiy koronar etishmaslikdan kelib chiqadi. Buning oqibatida yurak sohasida stenokarditik xarakterga ega bo'lgan og'riqlar

kelib chiqadi. Stenokardiya koronar arteriyalar aterosklerozining klinik alomatidir. Katta yoshli erkaklar, dislipidemiya, xafaqon, tamaki va spirtli mahsulotlar iste'moli, yurak maromining tezlashishi, gemostazning buzilishi, gipodinamiya, ortiqcha vazni kabi xavf omillari stenokardiya paydo bo'lish ehtimolini bir necha karra oshiradi. YuIK alomatlari paydo bo'lganidan keyin xavf omillari o'z ta'sirini ko'rsatishda davom etadi va prognozni yomonlashtiradi, shu boisdan ularni korreksiyalash va ikkilamchi profilaktikani amalga oshirish muhim omillardandir.

Stenokardiya xurujlari yosh o'tgani sayin ko'payib boradi: 45-54 yoshli ayollarning 0,1-1%, 65-74 yoshli ayollarlarning 10-15% uchrasa, 45-54 yoshli erkaklarning 2-5%, 65-74 yoshli erkaklarning 10-20% da uchraydi.

Yurak ishemik kasalliklaridan stenokardiyaning o'griqli xurujlarni bartaraf qilish va ularning oldini olish uchun qo'llaniladi. Davolash kursida C1, C2, MC6, MC7, J15, VB20, VB21, E19, E36, GI4, GI11 va boshqa miokardni qon bilan taminlashini yaxshilovchi biologik faol nuqtalar kiradi. Chu-lyan ma'lumotlari bo'yicha Stenokardiya huruji vaqtida chap tomondagi nuqtalarga – GI4 yoki VB21 yoki GI 11 (tormozlash usulining I variant) igna sanchish yaxshi natijalar beradi. Stenokardiyada gipertoniya fonida E36 chap GI11 qizdirish bilan muolaja o'tkaziladi. J14. Szyuy-syuye (kuch chegarasi) – kindikdan 6 s yuqori. T.A.: avvalgidek, ichkarida jigarning chap ulushi joylashgan. Ukol chuqurligi 20 mm. Ko'rsatma: oshqozon, yurak va o'pka kasalliklari, xadik va qo'rquv holatlari, maniakal holatlar, epilepsiya.

Stenokardiyada biologik faol nuqtalar.


C1-(HT) Szi-syuan (eng baland chashma) – nuqta qo'ltiq chuquri bo'ylab, katta ko'krak muskulining pastki chekkasi va yelka ikki boshli mushaklarining ichki chekkasida joylashgan. T.A.: tirsak va o'rta nervlar, yelka medial teri nervi, qovurg'alararo nervning lateral teri tarmoqlari, yelka arteriyasi. Ukol chuqurligi 15 mm. (ukol bir oz yuqori va tashqariga qilinadi). Ko'rsatma: yurak kasalligi, isteriya, qovurg'alararo nevrlogiya, pleksit, ko'ngil aynashi, Reyno kasalligi.



HT1

C2-(HT)Sin-lin (yosh qalb) – yelka ikki boshli mushaklari ichki chekkasida, tirsak bug‘imidan 3 s yuqori. T.A.: yelkaning medial teri venasi, yelka arte-riyasi, tirsak va o‘rta nervlari, yelka medial teri nervi. Ukol chuqurligi 10 mm (yo‘g‘on tomirlar bo‘lishi oqibatida kam qilinadi). Ko‘rsatma: yurak kasalligi, isteriya, qovurg‘alararo nevrалgiya, pleksit, ko‘ngil aynashi, Reyno kasalligi.

MC6 – (PC) “Ney – guan” (ichki darvoza) bilak-kaft burmasidan 2 sun yuqori, uzun qo‘l kafti muskullari va panjani bukuvchi bilak paylari orasida.T.A.. Ukol chuqurligi 10-15-mm. Ko‘rsatma: yurak sohasida og‘riq, stenokardiya,taxikardiya, astmatik komponent bilan oshqozon kasalliklari, konyunktivga qon quyilishi, tirsak va yelka bo‘g‘imi sohasidagi og‘riq, psixozlar, gipertoniya kasalligi. Akupunktura amaliyotidagi asosiy nuqtalardan biri.




PC6

MC7- (PC)Da-lin (katta tepalik) – bilak-kaft bo‘g‘imi o‘rtasi, uzun qo‘l kafti muskullari va panjani bukuvchi bilak muskullari paylari orasida. T.A.: o‘rta nerv va umumiy suyaklararo arteriya tarmoqlari. Ukol chuqurligi 10 mm. Ko‘rsatma: yurak kasalliklari, oshqozon kasalliklari, qovurg‘alararo nevlagiya, gidroadenit, tonzillit, bosh og‘rig‘i, uyqusizlik, psixozlar, gipertoniya kasalligi, yozuv spazmi, pleksitlar.

J15. Szyuy-vey (kaptar dumi)– qalqonsimon o‘simtada oxiridan 15 mm pastda Ukol chuqurligi 20 mm. Ko‘rsatma: oshqozon, yurak va o‘pka kasalliklari, xadik va qo‘rquv holatlari, maniakal holatlar, epilepsiya.

VB20 –(GB)“ Fen – chi”, soch o‘shish chegarasidan 1 sun yuqori, ensa suyagi ostida, trapetsiyasimon muskullar tashqi chekkasi chuqurchasi ichkarisida. T.A.: ensa nervlari va venasi, kichik va katta ensa nervlari. Ukol chuqurligi 12-20 mm. Ko‘rsatma: yurak sohasida og‘riq va taxikardiya , qizil o‘ngachdagi og‘riq,bosh miya, ko‘z, quloq va burun kasalliklari, sayyor va qo‘shimcha nerv faoliyatining buzilishi, shuningdek gimiplegiya va nev-rasteniya, gipertoniya kasalligi.




GB20

VB21 –(GB) (yelka qudug‘i) – suyak do‘ngi usti chuqurchasi markazida, T14 (Da – chjuy) va GI15 (Szyan – yuy) nuqtalari orasidagi masofa o‘rtasida, yelka bo‘g‘imlari usti kurak akromial o‘simtasi va yelka suyagi katta

boʻrtmasi orasida (qoʻl koʻtarilgandagi chuqurda). T.A.: kurak usti arteriyasi, oʻmrov osti suyagi va qoʻshimcha nervlar. Ukol chuqurligi 10-20 mm. Oʻta chuqur ukol qilish mumkin emas, negaki osongina xushdan ketish holati kelib chiqishi mumkin. Koʻrsatma: yelka kamari va ensa-boʻyin sohasidagi ogʻriq, gemiplegiya, nevrasteniya, bosh ogʻrigʻi, tugʻishdan keyin bachadondan qon ketishi, bosh aylanishi.

E19.(ST) Bu-jun (kirish man etiladi) – qorinning oʻrta chizigʻidan 6s yuqorida, togʻayning VIII qovurgʻaga birikishi pastki chekkasida. Ukol chuqurligi 10 mm. Koʻrsatma: oshqozon, jigar, yurak kasalliklari, kurak va yelka sohasida harakat va sezgi faoliyatining buzilishi, qovurgʻalararo nevrалgiya.



ST19



ST36

E36.(ST) Szu-san-li (uch oyoq masofa) – katta boldir suyagi tarogʻidan 30 mm tashqariga; tizza koʻzi pastki chekkasidan 3 s past. T.A.: nuqta katta boldir old mushagi va barmoqlarni yozuvchi, old katta boldir arteriyasi tarmoqlanadigan joy, chuqur kichik boldir nervi, son nervining old teri tarmogʻi va boldirning lateral teri nervi. Ukol chuqurligi 15-

25 mm, 3 yoshgacha boʻlgan bolalarda ukol chuqurligi 3-6 mm. Koʻrsatma: ovqat hazm qilish apparati, oyoq sohasi kasalliklari, umumiy oriqlab ketish, ogʻiz boʻshligʻi kasalliklari, siydik tutilishi, gipertoniya kasalligi, bosh ogʻrigʻi, koʻz kasalliklari. Akupunktura amaliyotidagi asosiy nuqtalardan biri, organizmga umumiy mustahkamlovchi taʼsir koʻrsatadi.

GI4 –(LI) “Xe – gu” (suyaklarning bir-lashishi) — I va II qoʻl kafti suyaklari orasida, II qoʻl kafti suyagining bilak chetiga yaqin-roqda. TA: barmoq orqa arteriyasi, bilak nervi-ning sirtqi shoxlari. Ukol chuqurligi 10-15 mm. Koʻrsatma: bosh (yuz, burun, koʻz, qu-loq), nafas olish aʼzolari kasalliklari, kollaps, uyqusizlik, tunda terlash, amenoreya, nevrasteniya, yuqori qoʻl sohasidagi ogʻriq va nimfa-laj, gavdaning yuqori qismidagi ogʻriq sind-rom-lari. Akupunkturaning asosiy nuqtalaridan biridir.



LI4

GI11 –(LI) “Syuy – chi”, tirsak bukumi tashqi chekkasi, tirsak burmasi va tashqi toʻpiq orasidagi masofa oʻrtasida. T.A.: bilakning orqaga qaytuvchi arteriyasi, bilak nervi, orqa teri va bilakning teri nervlari. Ukol chuqurligi 15-25 mm. Koʻrsatma: tonzilit, yelka, kurak va tirsak sohasidagi ogʻriq, bosh ogʻrigʻi, gemiplegiya, plevrit, qovurgʻalararo nevrалgiya, nevrasteniya, anemiya, teri kasalliklari, surunkali kolitlar. Bu nuqtaga taʼsir oʻtkazilganda umumiy mustahkamlovchi taʼsir koʻrsatadi.

Stenokardiya terapevtik davolashda nitratlar va nitratga oʻxshash preparatlar, β adrenoblokatorlar, kalsiy antogonistlari, antikoagulyant, antiagregant antioksidant dori vositlari bilan birgalikda refleksoterapiyani qoʻllash samarli natija beradi. Yurak ishemik kasalliklaridan stenokardiyaning oʻgriqli xurujlarni bartaraf qilish va ularning oldini olish uchun qoʻllaniladi.

Adabiyotlar:

1. Boris Nikolayevich Li. «Xalq tibbiyoti». Darslik. «Yangi asr avlodi» 2008-yil.
2. Жуманазаров, С.Б., Жаббаров, А.А., Султонов, Н.Н., Арипова, Н.А. Сравнительная эффективность применения препарата эритропоетина и препарата железа у больных ХПБ III и IV стадии. VIII международного конгресса «Кардиология на перекрестке наук, 103.
3. Очилова, З.С., Жаббаров, О.О., Жуманазаров, С.Б. Ренальная остеодистрофия у больных терминальной стадии почечной недостаточности, получающих гемодиализ, и пути её коррекции. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2022, 2(6), 233-240.
4. Қодирова, Ш., Жуманазаров, С., Сапаева, З. Подаграда буйраклар зарарланишининг клиник хусусиятлари. *Tibbiyotda yangi kun*. Бухарский государственный медицинский институт, ООО "Новый день в медицине", (6), 145-149.
5. Исломова, М., Жаббаров, О., Умарова, З., & Жуманазаров, С. (2022). Сурункали буйрак касалликларини даволашда антиоксидант препаратлардан фойдаланиш. *Студенческий вестник*, 8(5), С.57-61.
6. Мирзаева, Ш., Жаббаров, О., Максудова, М., Турсунова, Л., & Жуманазаров, С. (2022). Сурункали буйрак касаллиги бўлган беморларда кардиоренал синдромни даволаш. *Ўзбекистон терапия ахборотномаси*, 1, С.170-175.
7. Рўзметова, О., Жаббаров, О., Қодирова, Ш., Жуманазаров, С., & Рахматов, А. (2022). Сурункали буйрак касаллиги II-III босқичларидаги беморларда гипоазотемик даволаш самарадорлигини ўрганиш. *Студенческий вестник*, 8(5), С.62-65.
8. Мирзаева, Ш., Жаббаров, О., Максудова, М., Турсунова, Л., & Жуманазаров, С. (2022). Сурункали буйрак касаллиги бўлган беморларда кардиоренал синдромни даволаш. *Ўзбекистон терапия ахборотномаси*, 1, С.143-147.
9. Эшонкулов, Ж., Жаббаров, О., Замира, У., Мадазимова, Д., & Жуманазаров, С. (2022). COVID–19 инфекцияси ўтказган беморларда буйракларнинг зарарланиш патогенези. *Ўзбекистон терапия ахборотномаси*, 1, С.222-224.
10. Эшметова, С., Кенжаев, М., Максудова, М., & Жуманазаров, С. (2021). Возникновение желудочковая аритмий сердца у больных постинфарктным кардиосклерозом и методы их лечения. *Eurasian journal of academic research*, 1, С.172-181.